“O‘zbektelekom” AKning Sog‘liqni saqlash, mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasidagi siyosati

“O‘zbektelekom”AK (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya) O‘zbekiston Respublikasidagi yetakchi telekommunikatsiya operatori bo‘lib, mobil aloqa, Internet, ma’lumotlar uzatish va bulutli texnologiyalarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etadi. Kompaniya eng zamonaviy texnologiyalarni, jumladan, beshinchi avlod (5G) mobil aloqa va optik tolali aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali mamlakatning telekommunikatsiya infratuzilmasi rivojlanishiga katta hissa qo‘shib, telekommunikatsiya xizmatlari bozorida yuksak mavqega ega bo‘lib bormoqda.

Barqaror rivojlanish tamoyillari asosida Kompaniya o‘z xodimlari, pudratchilar va manfaatdor tomonlar uchun xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitlarini yaratishga intiladi hamda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi tamoyillarini barcha ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga integratsiya qiladi. Xodimlarning sog‘lig‘ini saqlash va mehnatini muhofaza qilish Kompaniya faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Xavfsiz mehnat sharoitini ta’minlash, ish joylarida xodimlarning mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya qilishlari ustida tizimli nazorat o‘rnatilishi Kompaniyaning strategik maqsadlarga erishishiga va ish jarayonidagi jarohatlanishlar xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Kompaniya xodimlarning sog‘lig‘ini saqlash va mehnatini muhofaza qilish sohasida qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagilarni amalga oshiradi:

ish jarayonida xodimlarning sog‘lig‘iga tahdid soluvchi xavflarni aniqlash, baholash va ularni boshqarish orqali xatarlarni kamaytiradi, xodimlarni xavfli ish omillaridan xabardor qiladi;

xodimlarni ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari bo‘yicha o‘qitish, malakasini oshirish, yo‘riqnomalar bilan ta’minlash va tibbiy ko‘rikdan o‘tishini tashkil etish, ish o‘rinlarining attestatsiyasini o‘tkazish, ish jarayonini optimallashtirish va xavfsiz texnologiyalar ulushini oshirish orqali xavfsizlikni ta’minlaydi;

xodimlarni shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari bilan, texnik va texnologik standartlar talablariga mos asbob-uskuna va qurlmalar bilan ta’minlaydi, ulardan to‘g‘ri va oqilona foydalanishni nazorat qiladi;

sog‘liqni saqlash, mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi tizimining auditini tashkil etadi va ma’muriy-jamoatchilik nazoratining barcha bosqichlarini o‘tkazish orqali takomillashtiradi;

xodimlarda ish jarayonida xavfsizlik qoidalari va tamoyillariga amal qilish madaniyatini rivojlantiradi va ularni xavflarni aniqlash hamda mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash jarayonlariga jalb qiladi;

manfaatdor tomonlar, pudratchilar va davlat nazorati organlari bilan xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish bo‘yicha samarali hamkorlik qiladi, qo‘shma tadbirlar tashkil qiladi.

Xodimlarning mehnatini muhofaza qilish va sog‘lig‘ini saqlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Kompaniya rahbariyati quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

mehnatini muhofaza qilish sohasida qonunchilik talablariga rioya etilishini ta’minlash orqali ish joylarini mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi, xavfsizlik texnikasi qoidalari, standartlari, me’yorlari, yo‘riqnomalari va ko‘rsatmalari talablariga muvofiq tashkil qilish;

barcha xodimlar, pudratchilar va manfaatdor tomonlar uchun ish jarayonidagi jarohatlanish va sog‘liqning yomonlashuvining oldini olish maqsadida sog‘lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish;

mehnat faoliyati bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklarning oldini olish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, shuningdek, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo‘yicha profilaktik tadbirlar o‘tkazish;

ish jarayonida xodimlar sog‘lig‘ini muhofaza qilish va xavfsizligini ta’minlash yuzasidan xavflarni aniqlash va bartaraf etish orqali ularni tizimli kamaytirish hamda boshqaruv ierarxiyasidan foydalangan holda ularni nazorat qilish;

xodimlarda mehnat muhofazasi va xavfsizligi qoidalariga rioya etish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda, joylardagi mehnat jamoalari vakillarining faol ishtirokini va maslahatlashuvini ta’minlash va xodimlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlashga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish;

mehnat faoliyati bilan bog‘liq baxtsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasbiy kasalliklarga chalingan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish;

sog‘liqni saqlash, mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo‘yicha ishlarni doimiy ravishda takomillashtirish, samaradorligini oshirish va bu borada mamlakatimiz hamda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini joriy etish.